

SINTAKTIK BIRLIKLAR TIZIMIDA PREDIKATIVLIK VA SINTAGMATIK MUNOSABATLAR.

Xaydarova Iroda Anarbayevna
(PhD), ISFT instituti Samarqand filiali,
katta o'qituvchisi
irodaxa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sintaktik va sintagmatik munosabatlar tushunchasi so'z birikmasi va gap doirasida tahlil qilinadi. Gapning nutqqa xos birlik sifatidagi funksional xususiyatlari, xususan, uning voqelikka munosabat bildirish imkoniyati predikativlik kategoriyasi orqali yoritiladi. Shuningdek, so'z va yasama birliklarda implitsit (ichki) predikativlikning mavjudligi masalasi E.S. Kubryakovaning atomar predikativlik haqidagi qarashlari asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda so'z, so'z birikmasi va gap o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar : sintaktik munosabat, sintagmatik munosabat, so'z birikmasi, gap, predikativlik, implitsit predikativlik, atomar predikativlik, til birliklari, nutq.

Аннотация: В статье рассматриваются синтаксические и синтагматические отношения на материале словосочетания и предложения. Особое внимание уделяется предложению как речевой единице, обладающей предикативностью и выражающей отношение к действительности. На основе концепции атомарной предикативности Е.С. Кубряковой анализируется возможность наличия имплицитной предикативности в словах и производных единицах. Выявляются общие и отличительные признаки слова, словосочетания и предложения в системе языка.

Ключевые слова: синтаксические отношения, синтагматические отношения, словосочетание, предложение, предикативность, имплицитная предикативность, атомарная предикативность, языковые единицы, речь.

Abstract: This article examines the concepts of syntactic and syntagmatic relations within the framework of word combinations and sentences. Special attention is paid to the sentence as a speech unit characterized by predicativity and its ability to express a relation to reality. Based on E.S. Kubryakova's theory of atomic predicativity, the study also discusses the presence of implicit

predicativity in words and derived units. The paper highlights both common and distinctive features of words, word combinations, and sentences within the language system.

Keywords: syntactic relations, syntagmatic relations, word combination, sentence, predicativity, implicit predicativity, atomic predicativity, language units, speech.

Kirish. Sintaktik va sintagmatik munosabat tushunchasi, odatda, soʻz birikmasi va gapning tahlili misolida oʻrganiladi. Biroq bunda soʻz birikmasi tahlilida ham, gap tahlilida ham soʻzlarning oʻzaro munosabatini kuzatish mumkin boʻladi. Soʻzlarning sintaktik va sintagmatik munosabati gap (jumla) doirasida shakllanadi. Albatta, soʻzlarning birikuvidan shakllangan sintaktik qurilmalarning mazmuniy jihatini morfemalar birikuvidan shakllangan qurilmadagi mazmuniy jihatga tenglashtirib boʻlmaydi. Shunday boʻlsa-da, ular orasida umumiylik belgilarini kuzatish mumkin. Gap (jumla) nutqqa tegishli birlik sifatida, avvalo, oʻzining muloqotda funksional xususiyatlarini namoyon qilishi bilan xarakterlanishiga koʻra, tilning birliklari, xususan, soʻz (turgʻun birikma va ibora)dan farqlanadi. Mazkur farqlanish gapning voqelikka munosabat bildirish xususiyatiga egaligida aniq kuzatiladi. Bu xususda predikativlikning gapga xos tushuncha ekani bilan bogʻliq qarashlar yetarlicha dalil keltirish imkonini beradi. Demak, har qanday gapda predikativlik belgisi mavjuddir. Bu xususda fikr bildirganida X. Xayrullayev E.S.Kubryakovga havola beradi va oʻzbek tilidagi ishchi, sportchi singari soʻzlarda E.S.Kubryakova taʼkidlaganidek, atomar predikativlik tushunchasidan kelib chiqib yasama soʻzda ham ichki (implitsit) predikativlik mavjud boʻlishi mumkinligini qayd etadi¹.

Metodologiya. A.M.Turobov doktorlik ishida bu xususda toʻxtalar ekan, E.S.Kubryakovaning kichik sintaksisning tekshiruv obyekti nopredikativ birliklar boʻlishi lozimligi bilan bogʻliq xulosasini eʼtiborga oladi². A.M.Turobov mazkur ishida yasama soʻzlar haqida, aniqrogʻi ularning til sathidagi sintagmatik munosabati xususida mulohaza yuritayotganini bayon qiladi³. Bizningcha, yasama soʻzlarning, umuman olganda, barcha soʻzlarning ham sintagmatik munosabati til sathida emas, balki nutq sathida namoyon boʻladi. Agar soʻz tarkibidagi, xususan, yasama soʻz tarkibidagi sintagmatik munosabat haqida fikr bildirish lozim boʻlsa, u holda

¹ Qarang: Хайруллаев Х.З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

² Qarang: Turobov A.M. Oʻsha avtoreferat. – B.20.

³ Qarang: Turobov A.M. Oʻsha avtoreferat, oʻsha bet.

soʻz tarkibidagi morfemalarning sintagmatik munosabati toʻgʻrisida fikr bildirish mumkin boʻladi deb oʻylaymiz. A.M. Turobov *tuzdon, gulzor, paxtakor, oʻyinchi* singari soʻzlarni misol keltirib, bu soʻzlar tarkibida bir oʻzak va bir affiks morfemaning sintagmatik munosabatga kirishayotganini oʻrinli qayd etadi⁴. Bu oʻrinda, nazarimizda, sintaktik munosabatdan koʻra, sintagmatik munosabat oʻzining real ifodasini namoyon qilgan.

Qayd etish joizki, sintaktik munosabat va uning turlarining namoyon boʻlishida sintagmatik munosabatlar ham alohida oʻrin egallaydi. Masalan: 1) rus yozuvchilar; 2) rus yozuvchilari.

Berilgan birikmalarning birinchisida (rus; yoz) oʻzaklari mavjud boʻlib, ularning ikkinchisi (yoz)ga affiks (-(u)vchi, -lar) morfemalari qoʻshilgan holati kuzatilmoqda. Birikma tarkibidagi birinchi soʻz bir oʻzak morfemadan tarkib topgan boʻlib, u uch morfemadan tarkib topgan (yoz + (u)vchi + lar) soʻz bilan sintaktik aloqaga kirishgan. Bu birikma komponentlari bitishuv usulida sintaktik aloqa hosil qilgan. Keltirilgan misollarning ikkinchisida esa, birinchi misoldagidan farqli oʻlaroq, *-i* morfemasi birikma sintagmatikasiga bir morfemaning miqdor jihatdan ortiqlikni taʼminlash orqali oʻzgarish kiritish bilan cheklanmay, u mazkur birikmaning komponentlari boʻlgan birinchi va ikkinchi soʻzni moslashuv yoʻli bilan sintaktik aloqasini yuzaga keltirmoqda.

Demak, morfemalararo sintagmatik munosabat gorizontol oʻq boʻylab shakllanishi barobarida, bir vaqtning oʻzida oʻzidan bir pogʻona katta boʻlgan sath birliklari, yaʼni soʻz va unga teng birliklararo sintaktik munosabatning turlicha boʻlishini ham taʼminlaydi. Soʻz va uning lugʻaviy hamda sintaktik munosabat shakllarining hosil boʻlishini, shuningdek, mazkur jarayonda affiksatsiyaning mohiyatini toʻliq farqlashga ularning morfologik tavsifi bilan cheklanish aniq xulosaga ega boʻlish uchun yetarlicha asos boʻla olmaydi.

Asosiy natijalar. Turgʻun va erkin birikmalarning shakllanishida oʻzaro farqli tomonlar kuzatilishi tabiiydir. Albatta, soʻz birikmasi nutqda shakllanar ekan, uning komponentlari oʻrtasidagi sintaktik munosabat dinamik xarakterli boʻladi. Biroq turgʻun birikmalar ham soʻzlardan tarkib topayotgani uchun soʻz birikmasiga tashqi tomondan oʻxshash boʻlgani bilan oʻz konstitutiv xususiyatiga koʻra soʻz birikmasidan, boshqacha aytganda, erkin soʻz birikmasidan tubdan farq qiladi. Buning dalilini ularning semantik strukturasi orqali tasavvur etish mumkin. Zotan, erkin soʻz birikmasida ifodalanuvchi tomon komponentlarning leksik-semantik jihatidan sintez qilinishi evaziga sodir boʻlsa, turgʻun birikmalarda ifodalanuvchi tomon birikmaning yaxlit

⁴ Qarang: Turobov A.M. Oʻsha avtoreferat, oʻsha bet.

strukturasi orqali voqelanadi. Buning o'ziga xos sababi bor, albatta. Chunki o'rganish uchun olingan obyekt, ya'ni erkin va turg'un birikmalarning sintaktikasi bu birliklarning semantikasini shakllantirmoqda. Demak, sintaktika semantik xususiyatning shakllanishi, voqelanishi uchun asos bo'lmoqda.

Erkin birikmalar nutqda shakllanadi. Ularni shu bois til birligi sifatida o'rganish imkoni mavjud emas. Turg'un birikmalar esa nutqda, avvalo, erkin birikma sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, semantik mohiyat ifodasi talabi bilan yaxlit sintaktik strukturaga aylangan va yana tushuncha ifodalashiga ko'ra so'zga teng birlik sifatida til birliklari qatoridan joy olgan. Turg'un birikmaning ana shu xususiyati uning lug'aviy birlik sifatida qayd etilishiga asos bo'ladi.

Turg'un birikma tarkibida sintagmatik munosabatning mavjudligi, uning o'ziga xos statiklik xos bo'lgan lingvistik tabiati turg'un birikma komponentlarini shartli ravishda ajratish hamda komponentlararo sintagmatik munosabatini belgilash imkonini beradi. Shuning bilan birga, turg'un birikmalarda ikkilamchi nominatsiya hodisasi ham kuzatiladi:

- 1) *og'zi qulog'ida;*
- 2) *burni peshonasida;*
- 3) *tumshug'iga xoda yetmaydi.*

Bu iboralarning ma'no-mazmuni fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bundan tashqari, iboralarda sintaktik munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar erkin birikma komponentlarini biriktirib kelayotgan holatidagidek vazifa bajarmaydi. Ammo ular iboraning dastlab erkin birikma shaklida bo'lganligidan dalolat beradi. Keltirilgan misollarning birinchisi (*og'zi qulog'ida*)dagi (-i; -i, -da), ikkinchisi (*burni peshonasida*)dagi (-i; -si, -da), uchinchisi (*tumshug'iga xoda yetmaydi*)dagi (-i, -ga; -ma, -y, -di) affikslari ham mazkur turg'un birikmalar tarkibida dinamik xarakterli bo'lmay, ular ham birikmaning umumiy ifodalovchisi sifatida yaxlit tarkibda o'z erkinligini yo'qotgan va statik xarakter kasb etgan.

Keltirilgan iboralarning hosil bo'lishi, avvalo, nutqda erkin shakllangan, ya'ni dinamik xarakterli qurilmani taqozo etgan. Ma'no-mazmundagi ko'chish dinamik xarakteridagi sintaktik strukturani ham sintaktikasiga ta'sir qilishi natijasida mazkur bog'lanish statik belgi-xususiyatga ega bo'lgan.

Qo'shma so'zlar tarkibidagi komponentlarning o'zaro munosabatida ham turg'un birikmalar komponentlari o'rtasidagi singari sintaktik munosabat voqelanishi mavjuddir. Bunda

ham komponentlarning o‘zaro munosabati dinamiklik xususiyatini yo‘qotib, statik xarakter kasb etadi. Bunday munosabatni *g‘o‘zapoya, belbog‘* kabi so‘zlar tarkibiy tahlilida kuzatish mumkin bo‘ladi. Masalan, *g‘o‘zapoya* so‘zining tarkibiy tahliliga e‘tibor qaratar ekanmiz, bu so‘zning shakllanishi *g‘o‘za/ -ning// poya/ -si* ko‘rinishidagi birikmaga asoslangani yaqqol anglashiladi. Qayd etilgan bu holatni, ya‘ni birikmaning qo‘shma so‘zga aylanishini tarixiy jarayon mahsuli deb hisoblashimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Bunday birikuvlar *sholipoya, arpapoya, bedapoya* kabi so‘zlarning shakllanishi jarayonida kuzatilganini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq *sholipoya, arpapoya, bedapoya* so‘zlari o‘z semantik taraqqiyoti davomida ikkilamchi nominatsiya kasb etgani bois, boshqa tushunchani, ya‘ni *sholi, arpa, beda ekiladigan maydon*⁵ ma‘nosini ifodalashga xizmat qilmoqda.

A.Hojiyev sintaktik-leksik usulda so‘z yasalişini so‘z birikmasining so‘zga aylanishi deb tavsiflaydi. Bu hodisaning sodir bo‘lishi til taraqqiyotida sintaktik birlik – so‘z birikmasidan leksik birlik – qo‘shma so‘z vujudga kelishini taqozo etadi. Misol tariqasida *mingboshi, jo‘xoripoya, tokqaychi* so‘zlari keltiriladi⁶.

Bizningcha, ulaning derivatsiyasida nol ko‘rsatkichli operator xususida fikr bildirish noo‘rin bo‘ladi. Zotan, nol ko‘rsatkichli operator dinamik xarakterli munosabat shakllanishi uchun zaruratdir. Keltirilgan misollardagi holat esa dinamiklik xususiyatini butunlay yo‘qotgan va turg‘un – statiklik xususiyatiga o‘tgan so‘zlardir. Albatta, ularning shakllanishiga tayanch bo‘lgan struktura bu so‘zlar emas, balki tom ma‘noda avvalgi davrda erkin so‘z birikmasi sifatida mavjud bo‘lgan sintaktik qurilmadir. Bu qurilmaning vaqt o‘tishi bilan bir so‘zga aylanishi uning sintagmatik belgi-xususiyatini ham o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Mazkur holatda qo‘shma so‘z so‘zlardan emas, erkin so‘z birikmasi komponentlarining o‘zaro bir-biriga singib ketishi, ta‘bir joiz bo‘lsa, ularning fuziyasi natijasida shakllangan. Chunki *g‘o‘zapoya (g‘o‘za/ -ning// poya/ -si)* so‘zining va boshqa shunday tuzilishli so‘zlar (*suvilon, belbog‘*)ning ma‘nosida shu so‘zning birikma holatidagi ma‘nosi qaysidir darajada saqlanganini inkor etib bo‘lmaydi. Bunday so‘zlar tarkibida komponent tushunchasi ham o‘ta nisbiy ma‘noda qo‘llanilishi lozim. Zotan, ularning tarkibiy bo‘linish ehtimoli ham nihoyatda muammolidir. Qo‘shma so‘z ham o‘z tabiatiga ko‘ra so‘zdir. Uning shakllanishida ham muayyan morfemalarning xizmat qilishi yuqoridagi misollar

⁵ Qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили нашриёти, 1981., Том I. – Б.55; 94.; Том II. –Б. 424.

⁶ Qarang: Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.

tahlilida ko‘rib o‘tildi. Albatta, morfemalarning sintagmatik munosabati derivatsiya jarayonida muhim hisoblanadi.

So‘z tilning asosiy va markaziy birligidir. Bu jihatdan u tildagi maksimal birliklarning paradigmasini taqozo etishi tabiiy. Biroq sodda so‘zlar haqida komponentlararo munosabat masalasiga e‘tibor qaratilganida boshqacha vaziyat kuzatilishi mumkin bo‘ladi. Bunda sintagmatik qatorda sintagmatik munosabat hosil bo‘lishi o‘zaro bir sathga tegishli bo‘lgan birliklar o‘rtasida kechishi nazarada tutilishi kerak. Sintagmatik aloqa yangi birlikni yoki shu birlikning boshqa bir shaklini hosil qiladi. Bu esa, o‘z o‘rnida, derivatsion mohiyat ta‘sirida amalga oshadi. Masalan, *tinchlik* so‘zining sintagmatik mohiyatiga e‘tibor qaratar ekanmiz, eng avval *t, i, n, ch, l, i, k* fonemalarini morfemalar tarkibiga kirishi sodir bo‘lishini, bunda ular (*tin, -ch, -lik*) uchta morfema tarkibida qayd etilgan tarkib va tartibda joylashishi, shundan so‘ng mazkur uchta morfema bitta so‘zning tarkibidan o‘rin olishi sodir bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. So‘z derivatsiyasida fonema, morfema va so‘z iyerarxiyasi

Ayrim tadqiqotlarda bir bo‘g‘inli so‘zlarni tub so‘z sifatida qarash va ularning hosil bo‘lishini *fonema* bilan bog‘lab tavsiflash holatlari ham kuzatiladi. Bunda bir bo‘g‘inli tub so‘zlarning derivat sanalmasligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi⁷. Biroq, nazarimizda, bunday munosabat o‘zining mustahkam ilmiy asosiga ega emas. Chunki har qanday so‘z bir yoki bir nechta morfemaning evaziga shakllanadi. Morfemalar esa fonemalar evaziga mavjuddir. Agar mazkur qonuniyatga to‘g‘ri amal qilinadigan bo‘lsa, u holda bir bo‘g‘inli so‘zlarning fonemalardan tarkib topishi xususida fikr bildirish izohtalabdir. Misol tariqasida *ish, ot, ov, o‘t* kabi bir bo‘g‘inli so‘zlarning tarkibiga e‘tibor qaratilsa, ularning, avvalo, har birning so‘z sifatida shakllanishi uchun

⁷ Qarang: Шодиев Ф.Т. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2008, – Б.13. (27 б.)

bittadan o‘zak morfema xizmat qilayotganini, bundan tashqari, shu bitta (o‘zak) morfemalarning har biri ham ikkitadan fonemaning evaziga shakllanganini kuzatish mumkin. Demak, so‘z to‘g‘ridan to‘g‘ri fonemalardan tarkib topmaydi, balki so‘z morfema yoki morfemalardan tarkib topadi. Morfemalar fonemalardan tarkib topadi. Buning uchun sintagmatik munosabat muhim hisoblanadi. Sintagmatik munosabat tilning istalgan sathidagi birligining o‘z virtualligidan chiqib, aktuallik kasb etishi uchun motivlovchi munosabat hisoblanadi.

O‘zbek tilida polisemantik yasama so‘zlarning barcha ma‘nosi shu so‘zning yasovchi komponentlari ma‘nolari bilan motivlanishi mumkinligi A.Hojiyevning qarashlarida o‘z ifodasini topgan. A.Hojiyevning qayd etishiga ko‘ra, ayrim ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nolaridan biri yoki ba‘zilari esa yasovchi komponentlar ma‘nosi bilan motivlanmasligi mumkin. Shu o‘rinda misol tariqasida *ishlamoq* fe‘lining *dalada ishlayapti* gapidagi ma‘nosi yasovchi asos (*ish* so‘zi) va yasovchi affiks (*-la* affiksi) ma‘nolari bilan motivlanishi qayd etiladi. Lekin A.Hojiyev fikrini davom ettirar ekan, *ishlamoq* fe‘li ishtirokidagi yana bir jumlani misol sifatida keltiradi: *O‘n so‘m ishladi* gapida *ishlamoq* fe‘lining ma‘nosini shu so‘zning yasovchi komponentlari ma‘nosidan keltirib chiqarish mumkin emasligini, bu ma‘no mazkur fe‘lning yasalishi bilan yuzaga kelgan ma‘nosi emasligini, balki shu fe‘lning semantik taraqqiyoti jarayonida hosil bo‘lgan ma‘no ekanini aniq ko‘rsatib beradi. Darhaqiqat, A.Hojiyev mazkur ma‘noni so‘z yasalishi orqali vujudga kelgan ma‘no sifatida qabul qilib bo‘lmasligini asoslab bergan. Albatta, polisemantizmlarga xos bunday ma‘nolar so‘z yasalishiga taalluqli emas⁸. Buni quyidagi jadvalda keltirilgan misollarda ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

So‘z yasalishi va yasalgan so‘zning semantik o‘zgarishi

1	Sobir dalada	ishladi	mehnat qildi
2	Komil o‘n so‘m	ishladi	daromad qildi
3	Odil yaratgan dastur	ishladi	faollashdi

⁸ Qarang: Ҳоҗиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989, – Б.12. (109 б.)

Xulosa. Keltirilgan misollarning birinchisida *ishla* fe'li *jismoniy mehnat qilish* ma'nosini, ikkinchisida *daromad qilish* ma'nosini, uchinchisida sun'iy intellekt mahsulining *faollashuvi* ma'nosini ifodalamoqda. Bu ma'nolarning birinchisi so'z yasalishi derivatsiyasiga ko'ra *-la* (operatori) orqali shakllangan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi misollarda ifodalanayotgan ma'nolar mazkur affiksning *ish* o'zak morfemasiga qo'shilishidan sodir bo'lgan derivatsiya mahsuli emasligi yuzaga chiqmoqda. Birinchi misoldagi *ishla* so'zi derivatsiyasida *ish* operand, *-la* operator, *ishla* derivat maqomida bo'lsa, ikkinchi va uchinchi misollarda operand *ishla* so'zining o'zi bo'lmoqda. Bunda operator implitsit ifodali nol operatoridir. Chunki ikkinchi va uchinchi misollarda so'z yasalishi kuzatilmaydi. Bunda shu so'zning semantik taraqqiyoti natijasi sifatidagi ma'nosi voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайруллаев Х.З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2001.
2. Turobov A.M. Kichik sintaksis muammolari: Filol.fan. doktr. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – B.5.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили нашриёти, 1981., Том I. – Б.55; 94.; Том II. –Б. 424.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.
5. Шодиев Ф.Т. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2008, – Б.13. (27 б.)
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989, – Б.12.
7. Хайдарова I.A. Morfemalarning struktur-semantik, iyerarxik va derivatsion xususiyatlari: Филол.фан. бўйича фалс. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2025. 48 б.
8. Хайдарова I.A. Til birliklari derivatsiyasida morfemalar sintaktikasi. Til va adabiyot ta'limi. 2026-yil. 1-son. e-ISSN-3060-4885. 49-52 b.